

SHAXSLARDA IJODKORLIK SALOHIYATINING RIVOJLANGANLIK DARAJASI

Samarqand Davlat Pedagogika instituti
Magistranti Vahobova Shahzoda

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxslarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasi pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ijodkorlik salohiyatining mazmuni, uning asosiy ko'rsatkichlari hamda shaxs rivojida ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, shaxsda ijodkorlik sifatlarining shakllanishi va ularning ta'lim jarayonidagi o'rni ochib beriladi. Maqola pedagogika sohasida ijodkorlikni rivojlantirish masalalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik salohiyati, kreativlik, shaxs rivoji, ijodiy fikrlash, pedagogik yondashuv, ta'lim jarayoni.*

Аннотация. В статье рассматривается уровень развитости творческого потенциала личности с педагогико-психологической точки зрения. Раскрывается сущность творческого потенциала, его основные показатели и значение в развитии личности. Особое внимание уделяется формированию творческих качеств и их роли в образовательном процессе. Материал статьи направлен на изучение проблемы развития креативности личности и может служить теоретической основой для подготовки будущих специалистов.

Ключевые слова: *творческий потенциал, креативность, развитие личности, творческое мышление, педагогический подход, образовательный процесс.*

Annotation. This article analyzes the level of development of an individual's creative potential from a pedagogical and psychological perspective. The essence of creative potential, its main indicators, and its significance in personal development are examined. Special attention is paid to the formation of creative qualities and their role in the educational process. The article is aimed at studying the development of creativity and serves as a theoretical basis for improving creative thinking skills in future professionals.

Keywords: *creative potential, creativity, personal development, creative thinking, pedagogical approach, educational process.*

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijodkorlik salohiyati uning intellektual, kasbiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar shaxsni tayyor bilimlarni egallovchi emas, balki mustaqil

fikrlovchi, yangilik yarata oladigan va muammolarga kreativ yondasha oladigan subyekt sifatida shakllantirishni talab etmoqda. Shu jihatdan, shaxslarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasini aniqlash va tahlil qilish dolzarb pedagogik masalalardan biridir. Ijodkorlik salohiyati shaxsning yangicha fikrlash, noodatiy g'oyalar ilgari surish, muammoli vaziyatlarda samarali yechim topish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda ushbu salohiyatning rivojlanganlik darajasi kelajakda ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada shaxslarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasi tushunchasining mazmuni, uning asosiy ko'rsatkichlari hamda pedagogik nuqtai nazardan ahamiyati yoritiladi.

Shaxslarda ijodkorlik salohiyati tushunchasi.

Ijodkorlik salohiyati - bu shaxsning intellektual, emotsional va motivatsion imkoniyatlari majmui bo'lib, u yangi g'oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangicha talqin qilish va muammolarga noodatiy yondashish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ijodkorlik salohiyati quyidagi sifatlar bilan tavsiflanadi:

- mustaqil va erkin fikrlash;
- original g'oyalar ishlab chiqish;
- muammoli vaziyatlarga kreativ yondashish;
- tashabbuskorlik va faollik;
- o'z fikrini asoslab bera olish.

Kreativlik tushunchasi ijodkorlik bilan birga bir kontekstda keladi. Kreativlik, ijodkorlik kabi so'zlar juda ko'p olimlarning e'tiboriga sazovor bo'lgan va ular buning ustida ko'plab tadqiqotlar, fikrlar almashinuvi olib borganlar. Misol uchun: Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"¹. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"² Shaxsda ushbu sifatning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi uning ijodkorlik salohiyatini belgilaydi.

Ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Shaxslarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasi bir qator pedagogik va psixologik ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Jumladan:

1. Kognitiv ko'rsatkichlar
– yangi bilimlarni tez o'zlashtirish,

¹ Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, kreativ pedagogika asoslari, o'quv uslubiy qo'llanma. 20-b

² Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, kreativ pedagogika asoslari, o'quv uslubiy qo'llanma. 20-b

- muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish,
- mantiqiy va tanqidiy fikrlash.

2. Ijodiy faoliyat ko'rsatkichlari

- original g'oyalar ilgari surish,
- noan'anaviy yechimlar taklif etish,
- ijodiy topshiriqlarga faol ishtirok etish.

3. Motivatsion ko'rsatkichlar

- yangilikka intilish,
- o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj,
- ijodiy faoliyatga ijobiy munosabat.

Mazkur ko'rsatkichlarning uyg'un rivojlanishi shaxsda ijodkorlik salohiyatining yuqori darajada shakllanganligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda kreativlik tafakkurni aniqlovchi testlar mavjud. Ulardan biri E.P.Torrens tomonidan 1987- yilda ishlab chiqilgan. Xorijiy mamlakatlarda bu allaqachon pedagoglar tomonidan foydalana boshlangan. E.P.Torrens fikricha, "kreativlik"³ tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Ijodkorlik salohiyatining pedagogik ahamiyati.

Shaxslarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ijodkor shaxs:

- o'quv jarayonida faol ishtirok etadi;
- muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashadi;
- innovatsion g'oyalar va tashabbuslarni ilgari suradi;
- jamoada samarali hamkorlik qila oladi.

O'qituvchi misolida kreativ shaxsni ko'radigan bo'lsak, uning tabiiy va ijtimoiy quvvati, kasbiy faoliyatining sifatli, samarali tashkil eta olganligidan hamda jamiyatdagi obro'sidan yaqqol ko'rib olsak bo'ladi. Ammo har qanday pedagog ham o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi chunki uning ijodkorlik salohiyati ma'lum bir vaqt ichida o'qib izlanishlar, o'zining ustida ishalashlar natijasida yuzaga chiqib keladi. Bu kabi ishlar ayniqsa bo'lajak pedagoglarning bakalavrluk paytidan boshlanadi va butun kasbiy faoliyatida tamal tosh vazifasini bajaradi. Aynan shu jarayonda oliy ta'lim o'qituvchilarining o'rni va ta'sir doirasi juda kengdir.

³ Bashina T.F., Ilin Ye.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.

– s.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shaxslarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanganlik darajasi ularning intellektual, ijtimoiy va kasbiy kamolotida muhim o‘rin tutadi. Ijodkorlik salohiyati shaxsning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashuvi, yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati hamda innovatsion faoliyatga tayyorligi orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur sifatlarning shakllanganligi ta‘lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Talabalarda ijodkorlik salohiyatining rivojlanishi ko‘p jihatdan o‘qituvchi omili bilan bevosita bog‘liqdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki talabalarni ijodiy faoliyatga yo‘naltiruvchi, ularning tashabbusini qo‘llab-quvvatlovchi va mustaqil fikrlashga rag‘batlantiruvchi yetakchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining pedagogik mahorati, kreativ yondashuvi, innovatsion metod va interfaol topshiriqlardan samarali foydalanishi talabalarning ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o‘qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy psixologik muhit, erkin fikr bildirish imkoniyati, xatoga nisbatan bag‘rikeng munosabat va talabalarning individual qobiliyatlarini inobatga olish ijodkorlik salohiyatining rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday ta‘lim muhiti talabalarni yangilikka intilish, muammolarni kreativ hal etish va o‘z fikrini mustaqil ravishda ifodalashga undaydi.

Umuman olganda, shaxslarda, xususan talabalarda ijodkorlik salohiyatining yuqori darajada rivojlanishi o‘qituvchi faoliyati, pedagogik yondashuv va ta‘lim jarayonining mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois ta‘lim tizimida ijodkor shaxsni shakllantirish o‘qituvchining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida” gi qonuni
2. Innovatsion ta‘lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. Mual.: M.X.Toxtaxodjaeva va b. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: “Iqtisod-moiya”, 2010. – 136-140-b.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: “Fan”, 2005.
7. <http://ziyonet.uz>